

**SECTION IV
FOREIGN PROFESSORS AND SPECIALISTS: RECRUITMENT, INTEGRATION AND
OUTCOMES.**

**O'ZBEK VA KOREYS MAQOLLARIDA ODOB-AXLOQ KATEGORIYASINING
LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI**

Bayonkhanova I.F.¹, Xvang Son Don²

Annotatsiya:

Maqolada o'zaro munosabat, murojaat qilish jarayonidagi o'zni tutish va fikr almashuvlar muomala madaniyati tushunchasi haqida fikr yuritilgan. Munosabat, murojaat, muloqot, munozara, mubohasa, muhokama, mulohaza singari tushunchalarning barchasi muayyan millat, ya'ni o'zbek va koreysning ziynatiga mos bo'lgan ziynatlar haqida bo'lib, u etik va estetik me'yorlar, qoidalar bilan amalga oshirilishiga ko'p ta'riflar berib o'tilgan. Maqolada inson dilini ovlash, unga mehr berish, samimiy tilaklar izhor etish ilinji sharq adabiyotida sharaflangan, taraflangan. Sababi, dunyoda bir ilm borki, bu adabiyotning bosh mavzusi bo'lib kelgan. Bu insonshunoslikdir. Ushbu ilmning ibtidosi esa inson diliga yo'l izlashdir. Ilmu fan ham, ma'naviy madaniyat va san'at ham shu haqda bosh qotirib kelgan.

Kalit so'zlar: Muloqot, muomala madaniyati, xulq-atvor, odob-axloq, nutqiy faoliyat, qalbga yo'l, o'zaro tushunish, сўз кўрки, тарбия асоси, 한국어 속담, 중의적 표현, 직접적 표현, 동음어, 다의어, 단의어. 의사 소통, 치료 문화, 매너, 품위, 연설 활동, 영혼의 길, 상호 이해, 단어 비전, 교육의 기초

Kundalik hayotimizda uchrovchi turli xil narsalarni hamisha ikki xil, ya'ni bir-biriga qarama-qarshi jihatlari orqali bilamiz. Bular ichida eng ko'p uchrovchi hodisalardan yaxshilik va yomonlik xislatlaridir. Yoki tilimizda bularni ijobiy bo'yoqdor so'zlar va salbiy bo'yoqdor so'zlarga ajratamiz. Yaxshilik va yomonlik leksemalarining maqollarda keng ko'lamda uchrashi tabiiy holdir. Chunki maqollar xalqning hayotiy haqiqatga nisbatan qarashlarini va munosabatlarini ko'rsatuvchi hodisadir. Shu o'rinda koreys va o'zbek maqollarida uchrovchi yaxshilik va yomonlik mavzusidagi maqollar xalqning ushbu tushunchalarga bo'lgan munosabatlarini yaqqol ifoda etadi. Keltirilgan fikrlarimizni isbotlash maqsadida quyida bir qator yaxshilik va yomonlik mavzusidagi ayrim o'zbek va koreys maqollarining semantik tahlillarini keltirib o'tamiz.

Koreyscha maqol :

나쁜 변명은 없는 것보다 낫다.

O'zbekcha variant:

Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqar, Yomon gap bilan musulmon dinidan.

Maqolning koreyscha variantini o'zbek tiliga tarjima qilsak, umuman kechirim so'ramagandan ko'ra kech bo'lsa ham kechirim so'ragan ma'qul degan tarjimani beradi. Maqol bir qarashda o'zbekcha "Hechdan ko'ra kech yaxshi" maqolini esga tushirishi mumkin. Ammo maqolning har ikkala tildagi variantini chuqur tahlil qilib chiqadigan bo'lsak, "Hechdan ko'ra kech yaxshi" muqobil variant bo'lolmasligiga amin bo'lamiz. Negaki "나쁜 변명은 없는 것보다 낫다" maqoli koreys xalqi tomonidan insonni kechirimli bo'lishga, har qanday sharoitda ham insonlar orasida yaxshi xulq-atvorli bo'lish kerakligiga o'rgatadi.

¹ Bayonkhanova Iroda Furkatovna, (PhD), v.v.b.dotsent. SamDChTI Koreys filologiyasi kafedra mudiri

² Xvang Son Don, Samarqand xalqaro texnologik universiteti (SIUT) Professor, xorijiy mutaxassis

Inson yaxshilik bilan, shirin soʻzlilik orqali koʻplab yutuqlarga erishishi va hayotini bir tekisda olib borishi mumkinligi aytiladi. Maqolning oʻzbekcha variantida keltirgan fikrlarimizning yanada taʼsirchan qilib ifodalanganini koʻramiz. Yaʼni:

“Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqar, Yomon gap bilan musulmon dinidan”

Ushbu maqol orqali oʻzbek xalqi insonni hamisha shirinsoʻz boʻlishi kerakligini uqtiradi. Maqolda ishlatilgan “ilon” obrazi qanchalik xavfli hayvon ekanligi barchaga maʼlum. Aslida bu obraz tagida salbiy xususiyatli insonlar qoʻshtirnoq ichiga olinadi. Yaʼni har qanday yomon, razil, zahar insonlar ham yaxshi gapga kirishi mumkinligi xalq tajribasidan kelib chiqqan holda maqolda oʻz aksini topadi.

Demak, keltirib oʻtgan maqolimizning har ikki tildagi variantlari bir xil maʼno-mazmunga ega. Bu jihatdan oʻzbek va koreys xalqining insonlar orasidagi muloqotda gʻoyatda shirin soʻz boʻlish kerakligi insonlarga xos xususiyatlardan biri ekanligini koʻrsatadi.

Oʻzbek va ingliz xalq maqollari sirasiga kiruvchi maqollardan:

Koreyscha: 나쁜 시작은 나쁜 끝을 만든다

Oʻzbekcha: Yomonchilik boʻlganda, qor ustiga muz yogʻar.

Koreyscha: 좋은 시작은 좋은 끝을 만든다.

Oʻzbekcha: Yaxshi yil — bahoridan, Yomon kun — saharidan maʼlum.

Ushbu singari maqollar eng ommabop maqollar sirasiga kiradi. Biror ishning natijasi qanday boʻlishi, uning qanday boshlanishiga bogʻliq ekanligi maqollarda ham oʻz aksini topa olgan. Odatda boshlagan ishimizning yakuni uni qanday ruhiyatda boshlashimizga va yon-atrofimizdagilarni bunga boʻlgan munosabatiga bogʻliq boʻladi. Shuning uchun ham ishni yaxshi boshlasak yaxshi, aksincha, yomon boshlasak, yomon yakun topishi maqollarda ifodalangan. Bunga qoʻshimcha qilib quyidagi maqolni ham keltirib oʻtsak boʻladi.

Koreyscha: 모든 시작은 끝을 생각한다.

Oʻzbekcha: Yaxshi yerga yotsang, Yaxshi tush koʻrasan.

Yomon yerga yotsang, Yomon tush koʻrasan.

Demak, har bir boshlamoqchi boʻlgan ishimizning yakuni uni qanday boshlashimizga bogʻliq ekanligi yuqorida keltirib oʻtgan maqollarimizda ifodalangan. Ushbu maqollarning tahlilidan kelib chiqib, har ikki tildagi variant bir xil maʼno- mazmun anglatayotganini koʻrishimiz mumkin.

Oʻzbek va koreys tillaridagi maqollarda oʻzining gʻoyat mazmunga boy ekanligi bilan ajralib turuvchi maqollardan yana biri “모든 구름에는 은색 안감이 있다” va maqolning oʻzbekcha varianti qilib:

“Har yaxshida bir “ammo” bor, Har yomonda — bir “lekin” olingan.

Koreyscha keltirilgan “모든 구름에는 은색 안감이 있다” aslida oʻzbek tiliga - “Har bir bulutning kumush hoshiyasi bor”, - deb tarjima qilinadi. Keltirilgan tarjima orqali biror ibratli fikrni darhol anglab olish biroz qiyin koreyschadan oʻzbekchaga qilingan tarjimada maqol oddiy bir gapdek boʻlib qolgan. Agar berilgan tarjimoni mazmunan tahlil qiladigan boʻlsak, bulutning kumush hoshiyaga ega ekanligi aslida yomgʻirning yogʻishi bilan baholanadi. Bir qarashda maqolda ishlatilgan soʻzlar “구름”- “bulut”yoki “은”- “kumush” hech qanday salbiy maʼnoga ega emas. Biroq maqolning umumiy mazmunidan kelib chiqadigan boʻlsak, havoning bulutli boʻlishi salbiy holatni ifodalasa, bulut boʻlib yer-u zaminga yomgʻir yogʻishi va bu orqali xalqqa risq-nasiba kelishi ijobiy hodisa sifatida baholanadi. Koʻchma maʼnoda ifodalangan bulutning kumush hoshiyasi- yomgʻir yogʻib, elga rizq ulashishi, tabiatni musaffo qilishi va baʼzan insonlar qalbidagi gʻuborni yuvishi bilan baholangan.

Endi maqolning oʻzbekcha muqobil varianti bilan tanishib chiqsak.

Oʻzbekcha varianti qilib “Har yaxshida bir “ammo” bor, Har yomonda — bir “lekin” keltirilgan. Maqolning maʼnosi shuni anglatadiki, inson hech qachon butunlay yomon yoki butunlay yaxshi boʻlolmaydi. Har bir yomon deb qaralgan shaxs yoki narsa-buyunning ham

o'ziga yarasha yaxshi tomonlari va har bir yaxshining o'ziga xos yomon jihatlari bo'lishi mumkin. Shu bugungi kungacha o'zbek xalq maqollari orasida xalq tomonidan faol tarzda ishlatilib kelinayotgan ushbu maqol o'zbeklar uchun aynan yuqorida keltirgan vaziyatimizda ishlatiladi. O'zbek xalqi qadim-qadimdan shu narsaga alohida e'tibor beradiki, biror shaxs yoki narsani mutlaqo qoralab bo'lmaydi va shu o'rinda mutlaqo yaxshi deb bo'lmaydi. Maqolning umumiy mazmuni shundan iboratki, har narsada faqat yaxshilikka erishish. Yomonni yomon deb umuman qatordan chiqarib tashlamaslik, yoki yaxshini juda yaxshi deb kibrga berib yubormaslik. Inson kibrga berilganda, o'zi bilmagan holda yomon bo'lib qolishi mumkindir. Demak, keltirib o'tgan maqolimizning har ikkala tildagi variantini bir xil ma'no- mohiyatga ega deb hisoblasak bo'ladi. Umuman, ishlatilish o'rniga ko'ra semantik jihatdan deyarli bir xil ma'noga ega.

Shu o'rinda, aynan yaxshilik va yomonlik leksemalari bilan ifodalanmagan bo'lsa ham, mazmun jihatidan shu mavzuga aloqador yana bir nechta maqollarni keltirishimiz mumkin.

Koreyscha: 비온뒤 햇살이 온다.

O'zbekcha tarjimasi: Yomg'irdan keyin quyosh chiqadi.

O'zbekcha ekvivalenti: Oyning o'n beshi qorong'u bo'lsa, O'n beshi yorug' bo'ladi.

Koreyscha: 저녁이 낮을 삼킨다.

O'zbekcha tarjimasi: Oqshom kunduzning toji.

O'zbekcha ekvivalenti: Har kechaning — kunduzi, Har kunduzning kechasi bor.

Ushbu maqollar orqali xalq o'z tajribasidan kelib chiqqan holda mangu yomonlik va yovuzlik bo'lmasligi yoki har doim ham faqat yaxshilik bo'lavermasligini ifodalaydi. "Oyning o'n beshi qorong'i bo'lsa, O'n beshi yorug' bo'ladi" va " Har kechaning — kunduzi, Har kunduzning kechasi bor" maqollari orqali xalq har qanday yomonlik ketidan yaxshilik yoki qiyinchilik ketidan faravonlik kelishi tasvirlanadi.

Ta'kidlab o'tganimizdek, maqollar bu xalq og'zaki ijodining mahsuli bo'lib, xalqning hayotiy tajribasi va orzu- intilishlarini, umuman olganda hayotga bo'lgan munosabatini qay daraja baholashining natijasidir. Quyida keltiradigan maqollarimiz orqali o'zbek va koreys xalqining yaxshilik va yomonlikka nisbatan bergan baholarini yanada aniqroq tushunib olish maqsadida quyidagi maqollarni ham ko'rib chiqamiz.

Koreyscha: 개에게 나쁜 이름을 붙이고 목매달아라.

O'zbekcha tarjimasi: Itga yomon nom bergin-u, osgin.

O'zbekcha ekvivalenti: Yomon atalib tirik yurguncha, Yaxshi atalib o'lgan yaxshi.

Koreyscha: 개와 함께 누운 자는 벼룩과 함께 일어나다.

O'zbekcha tarjimasi: Itlar bilan yotgan, bitlab turar.

O'zbekcha ekvivalenti: Yaxshiga yondashsang, yetarsan murodga, Yomonga yondashsang, qolarsan uyatga.

Koreyscha: 좋은 개는 좋은 뼈를 가질 자격이 있다.

O'zbekcha tarjimasi: Yaxshi itga — yaxshi suyak.

O'zbekcha ekvivalenti: Yaxshiga ipak ilashur, Yomonga tikan ilashur.

Ko'rib turganingizdek yaxshilik va yomonlik haqidagi ushbu maqollarning har uchlasining inglizcha variantida "dog" ya'ni "it" obrazi keltirilgan. Aslida "it" obrazining tagida inson va unga xos jihatlari ifodalangan. Ushbu "it" obrazi ifodalangan inglizcha maqollarning o'zbekcha variantlarida aynan "it"obrazi gavdalanmagan bo'lsa-da, baribir ma'no- mazmun bir xil. Har ikkilasida ham maqol hayvonga qarata emas, balki insonga qarata aytilgan. Ya'ni, yaxshi inson bo'lib el-u yurtga yaxshilik qilib yurish eng oliy fazilat hisoblansa, aksincha yomon, razil inson bo'lib xalqqa yomonlik qilib yurgandan ko'ra o'lgan yaxshi deb qaraladi.

Qadimdan ota-bobolarimizdan kelayotgan nasihatlariga ko'ra yaxshilik hamisha insonni ezgulikka yetaklaydi. Ezgulik bor joyda tinchlik-totuvlik, sihat- salomatlik va farovon hayot bo'ladi. Yaxshilik qilish va ezgulikka intilish xalq maqollarida alohida tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Koreyscha: 밝은 면을 보라.

O'zbekcha tarjimasi: Yorug' tarafga qara.

O'zbekcha ekvivalenti: Yaxshi niyat — yorti mol.

Koreyscha: 미덕은 결코 늙지 않는다.

O'zbekcha tarjimasi: Ezgulik sira qarimas.

O'zbekcha ekvivalenti: Ezgulikning kechi yo'q.

Koreyscha: 넘어지지 않는 좋은 말이다.

O'zbekcha tarjimasi: Hech qoqilmaydigan ot yaxshidir.

O'zbekcha tarjimasi: Otning yaxshisi tizidan ma'lum, Odamning yaxshisi — so'zidan.

Lekin bu bilan biz o'zbek va koreys maqollarida faqat ezgulik va yaxshilik tushunchalari keng ifodalangan deyolmaymiz. Yomonlik va yomon inson bo'lishning salbiy oqibatlarini haqida ham maqollar mavjud. Ular quyidagicha:

Koreyscha: 두 세계의 최악을 만드십시오.

O'zbekcha tarjimasi: Ikkala dunyoning ham eng yomon ishini qilmoq.

O'zbekcha ekvivalenti: Yomon bilan talashsang, qadring ketar.

Koreyscha: 최선을 희망하고 최악에 대비하라.

O'zbekcha tarjimasi: Yaxshilikka umid bog'la va yomonlikka tayyor bo'l.

O'zbekcha ekvivalenti: Yaxshilik — yog'och boshida, Yomonlik oyoq ostida.

Koreyscha: 한 바보가 많은 것을 만든다.

O'zbekcha tarjimasi: Bir ahmoq ko'plarini yaratadi.

O'zbekcha ekvivalenti: Qozonga yondashsang, qorasi yuqar, Yomonga yondashsang, yarasi yuqar.

Dono xalqimiz hamisha kechirimli bo'lishni eng yaxshi fazilat deb biladi. Yovuzlikni yo'qotishning eng buyuk tadbiri yaxshilik ekanligi maqollarda ifodalanadi. Yomonlik ustidan faqat yaxshilik bilan g'alaba qozonish mumkinligi xalq maqollarida o'z ifodasini topgan. Buni quyida keltirajak ingliz va o'zbek xalq maqollari misolida berib o'tamiz.

Koreyscha: 잘못된 것은 결코 옳은 것이 아니다.

O'zbekcha tarjimasi: Yomonlik sira yaxshilik keltirmas.

O'zbekcha ekvivalenti: Yomonlik qilganga yaxshilik qil.

Koreyscha: 선을 악에 맞서게 하라.

O'zbekcha tarjimasi: Yomonlikka yaxshilik qil.

O'zbekcha ekvivalenti: Yomonlikka yaxshilik er kishining ishidir, Yomonlikka yomonlik har kishining ishidir.

Koreyscha: 한번의 좋은 결정은 다음번 결정도 좋게한다.

O'zbekcha tarjimasi: Bir yaxshilik o'zga yaxshilikni keltiradi.

O'zbekcha ekvivalenti: Yaxshilik qilsang, yaxshilik qaytar, Yomonlik qilsang — yomonlik. O'zbek va koreys tillaridagi yaxshilik va yomonlik mavzulariga oid bir qancha maqollarni semantik tahlil qilib, ma'no jihatidan bir-biriga o'xshash va farqli jihatlarini o'rganib chiqishga harakat qildik.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'zbek va koreys tillaridagi ko'pchilik yaxshilik va yomonlik mavzusiga oid maqollar deyarli bir xil ma'no- mazmunga egadir. Faqat har ikki tilda aynan bir-biriga mos keladigan so'zlardan foydalanilmagan. Odatda tarjimada turlicha ma'noga ega bo'lgan maqollarni semantik jihatdan chuqur tahlil qilish jarayonida bir xil ma'no anglatishi kuzatiladi. Yaxshilik va yomonlik mavzusiga doir koreys va o'zbek maqollarining barchasida yaxshilik eng buyuk ezgu ish sifatida baholangan bo'lsa, yomonlik insoniyatning eng razil va jirkanch tomoni ekanligi ko'rsatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirzayev T. "O'zbek xalq maqollari". –Toshkent: 2003.
2. O'zbek xalq maqollari. –Toshkent: G'. G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2009.
3. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq 2012
4. Ўзбек халқ мақоллари. -Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978.
5. Ўзбек халқ мақоллари. II томли. –Тошкент: Ўзбекистон фан нашриёти, 1988
6. Shomaqsudov Sh., Shoraxmedov Sh. Ma'nolar maxzani . -T.: 2001
7. .Баёнханова Ирода Фуркатовна ДИСКУРСИВНО-ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ СТАТЕЙ, ВЫРАЖАЮЩИХ ЭТИКЕТ ОБЩЕНИЯ (НА ПРИМЕРЕ КОРЕЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ)// ИЖССР. 2023. №1. URL:<https://cyberleninka.ru/article/n/discursive-pragmatic-characteristics-of-articles-expressing-the-etiquette-of-communication-on-the-example-of-korean-and-uzbek> (дата обращения: 09.10.2024).
8. Furkatovna, B. I., & Farxodovna, A. Z. (2023). Koreys va o'zbek tillarida hurmat ma'noni ifodalovchi maqollarning qiyosiy tahlili. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 1(5). .
9. Bayonxanova, I. F. (2024, February). KOREYS VA O 'ZBEK TILLARIDA ODOB-AXLOQQA OID MAQOLLARNING BEVOSITA IFODALANISH XUSUSIYATLARI. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 255-260).
10. Bayanxanova I. F. LINGUOPRAGMATIC FEATURES OF PROVERBS IN UZBEK, KOREAN AND ENGLISH //Innovation: The journal of Social Sciences and Researches. – 2023. – №. 1. – С. 18-21.